

Journal of New Century Innovations

VOLUME

7

ISSUE-4



Journal of new
century innovations

Exact and natural sciences

Pedagogical
sciences

Social sciences
and humanities

Engineering and
Medical Sciences

AREAS



Google
Scholar



WSRjournal.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "DO'ST" KONSEPTINING SOTSIAL O'ZIGA XOSLIGI

Sitora Zokirovna Turaboyeva

Toshkent tibbiyot akademiyasi ingliz tili o'qituvchisi

torasitora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada do'st konsepti etnosotsiopragmatik jihatdan tahlil qilingan, ushbu konseptosferaga kiruvchi leksik birliklar qiyosiy aspektda o'rganilgan. Do'st konseptining o'zbek va ingliz tillaridagi freym va geshtelt hosil qilish jihatidan til imkoniyatlari taqqoslangan. Shuningdek, do'st konseptining sotsial o'ziga xosligi diskursiv tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: konsept, konseptosfera, diskurs, etnosotsiopragmatik tahlil, ekvivalentlik, freym, geshtelt, sinanamik qator.

Kishilik jamiyatida tilning o'zni qay darajada ahamiyatli bo'lsa, undan foydalanish ko'lami va qo'llaniladigan so'zning mazmun-mohiyati, qo'llanilish jarayonida o'zi tashib kelayotgan ma'no ham shu darajada muhim hisoblanadi. Hozirgi kunda tilshunosligimizda yangidan yangi sohalar vujudga kelib, ular tilni har jihatdan o'rganishga qaratilyapti. Ularning orasida sotsiolingvistika tilni jamiyat bilan bog'lab o'rganishi nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiolingvistika tilshunoslikning lisonni hamda undagi sotsial o'ziga xosliklar bilan aloqadorligini o'rganadigan soha hisoblanadi. Kengroq qilib aytganda, jamiyatdagi insonlar tomonidan tildan foydalanish ko'lami, tildan foydalanuvchilarning yoshi, ularning jamiyatda tutgan o'zni, ularning madaniyati hamda ilmlilik ko'rsatkichi, yashab turgan muhiti o'rtasidagi differentsatsiya, o'zaro muloqot davomida vaziyatga bog'liq bo'lgan tafovutlar tushuniladi.

Til kishilik jamiyatining asrlar davomida butun tarixiy jarayonida ma'lum bir guruh tomonidan emas, balki butun jamiyat va jamiyatning a'zolari tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy hodisadir. Shu bilan birga, til biror davrning, biror ijtimoiy-

iqtisodiy jamiyatning mahsuli bo'lmay, balki, jamiyatdagi turli tabaqa vakillari uchun bab-baravar xizmat qiladi. Tilning kishilik jamiyatidagi o'rnini madaniy-ma'naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilash tilning asosiy vazifalarini to'g'ri ta'riflashga asoslanadi.

Dunyo miqyosida eng ko'p qo'llanilib kelinayotgan so'zlar har bir millat tilida boshqa millatdan farqliroq o'ziga xos ma'no ko'lamiga ega bo'lishi mumkin. Bu holatda ushbu so'zlar izohli lug'atlardagi farqlarga ham to'g'ri keladi. "Do'st" konsepti madaniyatlararo bahs-munozarada inglizcha atamaning ma'nolariga qo'shimcha sezgirlik, uning yaxshi do'stlik va iliq his-tuyg'ular atributlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Boshqa tillardagi "do'st" so'zi bilan tarjima qilinishi mumkin bo'lgan so'zlar, qarindoshlik rishtalarida bo'lgani kabi, mehr-oqibat muhim rol o'ynamaydigan munosabatlarga ishora qilishi mumkin.

Buning uchun, eng avvalo, qiyoslanayotgan har ikki tildagi "do'st" konseptiga o'sha tillarning izohli lug'atlarida qanday ta'rif berilganligi bilan qiziqib ko'rish kerak. Masalan, ingliz tilida "do'st" so'zi quyidagicha tavsiflanadi:

1. Siz yaxshi biladigan va sizga juda yoqadigan, odatda, oilangiz a'zosi bo'lmagan odam;
2. Mehr yoki shaxsiy hurmat tuyg'ulari bilan boshqasiga bog'langan odam.
3. Yordam ko'rsatuvchi shaxs: [homiy](#), [tarafdor](#);
4. Boshqasi bilan yaxshi munosabatda bo'lgan odam; dushman bo'lmagan odam;
5. Bir millat, partiya va boshqalar a'zosi;
6. Ijtimoiy tarmoq veb-saytida kontaktlar ro'yxatidagi kishilar;

O'zbek tilining izohli lug'atida esa "do'st" leksemasiga shunday ta'rif beriladi:

1. Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo'lgan, inoqlik, ahillik bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o'rtoq;
2. Yaqin tanish, oshno.

Ingliz tilida "[do'st](#)" so'zining ma'nosi yuzlab yillar davomida doimiy ravishda saqlanib qolgan. Bu so'z qadimgi ingliz tili yaratilganidan beri mavjud bo'lib, etimologiyasiga ko'ra nemis tilidan kelib chiqqan so'z hisoblanadi. Aynan "do'st" so'zining dastlabki ikki harfi ma'no bildirib, "fr" – "friday" (juma) leksemasining hosil

bo'lishiga asos bo'lgan, ya'ni "friday" – "Frigg kuni" nemis sevgi ma'budasi Friggga bag'ishlangan. Mazkur ma'lumotlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ingliz jamiyatida bu konsept muqaddas bo'lgan munosabatlarga nisbatan qo'llanilgan. O'zbek tilida ham "do'st" leksemasining onomastikada Do'stlik tumani, Do'stobod mahallasi toponimlari; Do'stmuhammad, Do'stbek, Do'stjon, Do'stxo'ja, Do'stmurod, Do'stim va shu kabi antroponimlar shaklida mahsuldor qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz.

O'zbek tilida "do'st" tushunchasi "o'rtoq", "hamfikir", "yor" kabi ijtimoiy tushunchalar qatorida sodir bo'ladigan inson hayotida qimmatli tushunchadir. O'zbek tilida uchraydigan do'st so'zi bilan qo'llanadigan ba'zi ifodalarni ingliz tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi. Chunki ularni so'zma-so'z tarjima qilish uning boshqa tillardagi ma'nosini ifodalash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Bunga misol qilib lingvokulturologik birliklardan maqollar, iboralar va qotma birikmalarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Insonlar o'zlarining hayotida bo'lgan voqealarni o'z avlodlariga turli yo'llar bilan yetkazib berishga harakat qilishgan. Shunday narsalarni yerkazib berishda xalq og'zaki ijodi, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va shu kabilar ning roli beqiyos sanaladi. Mana shu manbalardan biri bo'lgan maqollar ham biz uchun to'g'ri qaror qabul qilishda, har xil vaziyatlardan chiqishda yordamchi vazifasini o'taydi:

There is no better looking-glass than an old friend. / The eye of a friend is a good mirror. - Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib (Do'st achchiq (haqiqat), dushman shirin (yolg'on) aytadi). Ushbu maqollarda aytadiki, haqiqiy do'st haqiqati senga ham yoqmaydi va ular senga xatolaringni yoki yomon xulqingni aytib berishlari kerak, dushmanlar esa yoqish yoki zaif tomoningni topish uchun sizni shirin so'zlar bilan aldashadi. Ushbu ikkala ingliz maqolida oyna (= *looking-glass*) leksemasi ishlatilgan. Ushbu maqollarning o'zbekcha ekvivalenti oksimoronning uslubiy vositasiga ega (*do'st - dushman, achchiq - shirin*). Bu maqolning asosiy ma'nosini noto'g'ri tushunishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ingliz va o'zbek tillarida

maqollarning ekvivalentlarini topish usuli ushbu tillardagi do'stlik haqidagi maqollarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun ishlatiladi.¹

“Do'st” urush va to'qnashuvlar davrida o'zining “dushman” antonimi bilan ham ta'riflangan. “Do'st” bo'lish uchun bir-biriga dushmanlik qilish mumkin emas – nizoning turli tomonlarida do'stlar yo'q edi va aynan o'sha paytda “do'st” sodiqlikni tasvirlash va belgilash uchun o'z ma'nosini kengaytirdi. “Do'st” leksemasining urushdagi “dushman” leksemasiga nisbatan antonimik shakli ingliz va o'zbek tillarida bir xil sotsial xoslikka ega.

O'rta ingliz tilida va undan tashqarida do'st ma'lum bir muassasaga moliyaviy yordam beradigan odamning qo'shimcha ma'nosiga ega bo'lgan. 17-asrning oxiriga kelib, do'st “yaxshi munosabatda bo'lgan va dushman emas” degan ma'noni anglatuvchi sifatdo'shga aylantirildi.

“Do'st” va uning ijobiy ma'nolari ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatning turli guruhleri va institutlari tomonidan qabul qilina boshlaganligi ajablanarli emas. “Do'st” so'zini advokatlar ham ishlatgan – mening “o'rgangan do'stim” sudda advokatga murojaat qilish uchun ishlatilgan.

O'rta ingliz tilining so'nggi davrida “do'st” romantik yoki jinsiy sherikni tasvirlay boshladi – biz “do'st” ma'nosidagi bu o'zgarishni “girlfriend” – qiz do'st (sevgan qiz) “boyfriend” – yigit do'st (sevgan yigit), ayol-do'st yoki erkak-do'st kabi so'zlarda ko'ramiz. Zamonaviy ingliz tilida oshiqni shunchaki “do'st” deb atash evfemizm hisoblanishiga qaramasdan, so'zlashuv uslubida qo'llanilib keladi. Yuqoridagi misollardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ingliz tilida “do'st” konsepti sotsial o'ziga xoslikka ega, jamiyatning turli qatlamlarida turlicha ma'no ifodasiga ega leksema hisoblanadi.

O'zbek tilida esa jinsiy sheriklikni ifodalash uchun “do'st” so'zining sinonimi “o'rtoq” leksemasidan foydalaniladi: “turmush o'rtoq”. Bu konseptni juftlikning har ikki a'zosi ham bir xil mazmunda qo'llaydi, chunki “turmush o'rtoq” so'zida jins

¹ G.H. Shukrullayeva, M.N.Azamatova, Z.O'.Ziyatova. O'zbek va ingliz xalq maqollarida do'stlik tushunchasi masalalari.//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601. 687-bet.

kategoriyasi mavjud emas va u “er” leksemasiga nisbatan ham, “xotin” leksemasiga nisbatan ham bir xil maqomda qo‘llanilish xususiyatiga ega.

Shunchaki “do‘st” bo‘lganlarga nisbatan qarindosh-urug‘larning ustuvorligi bir qancha madaniyatlarda ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq bo‘lgan muhokamaga loyiq mavzu bo‘lib ko‘rinadi. Umr davomidagi va yaqinda paydo bo‘lgan yaqin do‘stlarning salohiyati amalda kamdan-kam uchraydi. Ijtimoiy tarmoq veb-saytida kontaktlar ro‘yxatidagi kishilar ham “do‘st” atamasi bilan belgilanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning xalqaro ahamiyatga ega ekanligi, hudud ajratmasligini hisobga olgan holda bunday tarmoqlardagi “do‘st” lar butun dunyoda bir xil mazmunga ega, ya‘ni sotsial xoslanmaydi.

“Do‘st” leksemasi haqida umumiy ma'noda fikr yuritish uning madaniy talab qilinadigan ishlashini hisobga oladi. “Do‘st” konseptidagi madaniy o‘zgarishlar jins, yosh va sinfga bog‘liq bo‘lgan turli xil qadriyatlar bilan bog‘liq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1981, 677-bet.
2. G.H. Shukrullayeva, M.N.Azamatova, Z.O‘.Ziyatova. O‘zbek va ingliz xalq maqollarida do‘stlik tushunchasi masalalari.//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601. 687-bet.
3. Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики // Преподавание языка и литературы. –Ташкент. – 2007. – №3. – Б.34;
4. Адясова Л. Е. Метафора дома в концептуальном представлении СССР в современном российском медиадискурсе //Современные проблемы науки и образования. – 2014. – №. 5. – С. 558-558.;
5. Антология концептов. Том I. – Волгоград: Парадигма. – 2005. – 352 с.
6. Апресян В. Ю. Механизмы образования и взаимодействия сложных значений в языке // автореф. дисс. докт. филол. наук. М., 2015. –42 с.
7. Аристотель. Риторика. Поэтика. Кн. III. М. – 2000. – 256 с.
8. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. М.: Яз. рус. Культуры. – 1998. – 399 с.
9. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: Антология. М., 1997. – С. 276-379.
10. Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики//Филология масалалари, – №4 – Тошкент, 2004. – С. 24-28.

18	РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РУССКОГО ЯЗЫКА	89
19	O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "DO‘ST" KONSEPTINING SOTSIAL O‘ZIGA XOSLIGI	95
20	O‘ZBEKISTON SSRNING IKKINCHI JAHON URUSHI VA URUSHDAN KEYINGI TIKLANISH YILLARIDAGI HAYOTIGA DOIR	100
21	O‘QITISHDA KOMPYUTER VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI	105
22	LOGOEPISTEME AS A LINGUOCULTURAL UNIT	109
23	EFFECTIVE TECHNIQUES FOR ENGLISH CONVERSATION GROUPS	112
24	TA‘LIM TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH	118
25	ҚОНУНЛАР ИЖРОСИ УСТИДАН НАЗОРАТНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ХУҚУҚИЙ ХУЖЖАТЛАРДА КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАРНИ АНИҚЛАШ ҲАМДА БАРТАРАФ ЭТИШДА ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	122
26	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КОРРУПЦИЯГА ОИД ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ТЎҒРИСИДАГИ АХБОРОТНИ ХАБАР ҚИЛУВЧИ ШАХСЛАР ВА УЛАРНИНГ ЯҚИН ҚАРИНДОШЛАРИНИ ХУҚУҚИЙ ҲИМОЯСИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ АСОСЛАРИ	129
27	ТАҚИҚ ВА СЧЕКЛОВЛАР – ДАВЛАТ FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH MECHANIZMI SIFATIDA	140
28	ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИ СОҲАСИДАГИ КОРРУПЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ИҚТИСОДИЙ ҲАМКОРЛИК ВА ТАРАҚҚИЁТ ТАШКИЛОТИНИНГ ТАВСИЯЛАРИ ВА АЙРИМ ДАВЛАТЛАРНИНГ СОҲАДАГИ КОРРУПЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШГА ДОИР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРИ	148
29	КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ ЎҚИТИШ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР	160
30	КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ ЎҚИТИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	172
31	MUNAVBAT VA VAFO KUYCHISI – ZULFIYA	192
32	BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARINI TEXNOLOGIK TA‘LIMGGA KREATIV YONDASHUVINI SHAKLLANTIRISH	195